

MAQOLLARDA ARXAIK VOSITALAR ORQALI KONNOTATSIYANING IFODALANISHI

Muxammedova Sumbul

UrDU magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida sodir bo‘luvchi konnotatsiya hodisasining arxaik birliklar asosida yuzaga kelishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit s o‘zlar: konnotatsiya, arxaizm, maqol, mo‘ndi, buromad, kift

Folklor manbalarida uchraydigan noyob lingvistik faktlarni, leksik va grammatik elementlarning leksik-semantik, etimologik funksional jihatlarini ochib berish, ularni hozirgi adabiy tilimiz taraqqiyotida tutgan o‘rnini va qo‘shayotgan hissasini aniqlash bugungi tilshunosligimiz uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki, ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan manbalar tilini o‘rganish, tilimiz rivojlanishi qonuniyatlarini belgilash, tarixiylik jihatdan o‘zbek tili va shevalarining o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham mazkur masalaning yuqori ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, tilimizning xalqaro mavqeyini oshirish borasidagi muhim vazifalarni tilga olganida shunday degan edi: “...O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari: shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, shu sohada ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur. Bu ishlar uchun moliyaviy resurslar va mablag‘larni aslo ayamasligimiz kerak” [1.4].

Til xuddi jonli organizm kabi yashaydi, taraqqiy qiladi, rivojlanadi va agar unga turli ta’sirlar bo‘laversa, cheklovlar qo‘yilsa, o‘rganilmasa, sayqallanib turmasa iste’moldan chiqadi va o‘lik tilga aylanadi. Jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma’rifiy sohadagi islohotlar tilning lug‘at boyligida yangi-yangi so‘z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda so‘z-leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi [2.204]. Mazkur jarayon natijasida tilda neologizm, arxaizm va istorizmlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu izlanish uchun, o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan *mo‘ndi, buromad, kift* kabi leksik birliklarni tahlil qilishni maqsad qildik. O‘zbek xalq maqollaridan olingan yuqoridagi arxaik leksemalarning tarixiy-etimologik jihatlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning muayyan qismi tilimizga o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lib chiqadi. Ana shunday elementlar ishitiyor etgan maqollarga yuzlanamiz:

mo‘ndi [7.669] – *Bo‘zchi belboqqa yolchimas, Kulol mo‘ndiga*. Ushbu maqoldagi *mo‘ndi* so‘zi asl denotativ ma‘nosida “ko‘za” semasini ifodalashga moslashgan. Biroq, mazkur lekasemaga keltirilgan maqol matnida uslubiy jihatdan qo‘shimcha konnotativ ma‘nolarni ifodalash funksiyasi ham yuklanganini sezish qiyin emas, albatta. Ya‘ni, bo‘zchi o‘ziga belbog‘ qilishga, kulol esa o‘zi uchun ko‘za yasashga vaqti bo‘lmaydi, ular nuqul boshqalarga yordam beradi. Birovalarga foydasi tegib yuradigan ba‘zi odamlarning, ko‘pincha o‘zining shaxsiy ishlari orqada qolib ketadi. Ushbu maqol shunday odamlarga nisbatan ishlatilgan. Mazkur o‘rinda gap *mo‘ndi* arxaik elementi haqida emas, yaxshi insonlarning o‘z tashvishlari va yumushlarini bir chtga surib, o‘zgalarning xuddi shunday yumushini osonlashtirishga yordam berishi haqida ketmoqdaki, bunday xususiyat, odatda, o‘zbek millatiga mansub kishilarda kuzatiladi.

Buromad [5.381] – (*Daromadga qarab buromad*). Mazkur maqola tarkibida qo‘llanilgan *buromad* so‘zi ham aslan denotat sifaidagi semasi bilan “chiqim”, “sarf-xarajat” ma‘nosida bo‘lsa, maqoldan anglashiladigan umumiy ma‘noga ko‘ra kirimingga qarab chiqim qil, o‘z holingga yarasha ish ko‘r. Kirimingning mazasi bo‘lmasa-yu, chiqimni katta-katta qilib yuborsang, keyin o‘zingga qiyin bo‘ladi, degan ma‘noda iqtisod va tejamkorlik yuzasidan berildigan maslahat ma‘nosida qo‘llanilgan.

Mazkur maqolga ham uslubiy jihatdan qo‘shimcha konnotatsiya vazifasi yuklangan bo‘lib, unda o‘z holingga yarashadigan ish qil. Bu o‘rinda albatta aromad, moliyaviy ahvol ma‘nosi yetakchi o‘ringa qo‘yilgan bo‘lishi birinchi navbatda ko‘zga tashlanadi. Shunday bo‘lsa ham, maqolning umumiy ma‘nosi juda keng qamrovli bo‘lib, unda boshqa ko‘rinishdagi inson holati va ahvoli ham nazarda tutilishi mumkin. Shu o‘rinda yana bir fakt iyytib o‘tish joyiz deb hisoblaymiz.

G‘arb madaniyatida bunga qarshi qo‘yiluvchi g‘oyalar kuzatiladi. Masalan, slavyanlarda “tavakkal qilish olijanob ish” (ya‘ni, риск благородное дело) kabi g‘oyaviy jihatdan o‘zbek milliy madaniyatiga unchalik ham mos kelmaydigan fikrlar ham mavjud. O‘zbeklarda “*Yetti o‘lchab – bir kes*” yoki yuqorida keltirilgan “*Daromadga qarab – buromad*” kabi maqollarimiz mavjudki, bular g‘arb madaniyati bilan deyarli qarama-qarshi kelib qolgan tushuncha va g‘oyalarni anglatadi. Ya‘ni, bor budini bir ishga tikib

tavakkal qilish qadimdan, ota-boblarimiz tomonidan ma'qul bo'lmagan ish sifatida aytib kelingan.

Keltirgan maqolimizdagi buromad so'zining qo'llanishi haqida birgina xulosa chiqarishimiz mumkin. ushbu maqoldagi barcha so'zlar arxaiklashmaganligiga faqat birgina "buromad" so'zi eskirgan ekanligiga e'tibor qilinsa, bu so'zning maqol tarkibiga kirishiga uning fonetik tarkibi, ya'ni "daromad" so'zi bilan qofiyadosh bo'lib chiqqani sabab bo'lgan deyish mumkin.

Kift [6.377] – *Onangni kiftingda tutsang, singlingni boshingda tut.* Ushbu maqolda qo'llanilgan *kift* so'zi haqida turli munozaralar ham kuzatiladi. Mazkur *kift* so'zi ham u bilan noto'g'ri ravishda almashtirilib qo'llaniladigan *kaft* so'zi ham etimologik jihatdan arabiy tillarga taalluqli leksemalar hisoblanadi. Buni o'sha so'zlar izohi keltirilgan o'zbek tilining izohli lug'ati hamda Sh.Rahmatullayev tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek tilining etimologik lug'ati" [3.202] ham tasdiqlab beradi. Ba'zilar bu so'zni arabiy tillarga aloqador bo'lgan *kaft* so'zi bilan almashtirib qo'llaydilar.

Mazkur leksemalarni o'zaro paronimlik hosil qiladi deb hisoblash to'g'ri bo'ladi va ularning tovush kompleksi bir-biriga juda yaqin bo'lgani uchun ham ularni biri ikkinchisining o'rnida qo'llanilish holatlari kuzatiladi. Har ikkala so'z ham aslan arabiy tillarga aloqador *kaff (un)* shaklidan olingan bo'lib, forsiy tillarga o'zak oxiridagi bitta "f" undoshi tushib qolgan holatda "kaf" tarzida o'zlashgan. Xuddi shu shakl o'zbek tiliga o'zlashganda uning oxiriga bitta "t" undoshi qo'shib ishlaydigan bo'lgan. Buning ham o'ziga xos sababi mavjud bo'lib, Sh.Rahmatullayevning keltirishicha: "yelka ma'nosini bildiruvchi arabcha *kift* so'zining *kaft* shakli sabab bo'lgan, ...*kaft* so'zi ham xuddi *kaf* so'zi kabi qo'lning bilak uchi bilan barmoqlar oralig'idagi yassi qismi ma'nosini anglatadi..." [3.199].

Bizningcha, ushbu so'zlarning almashtirib qo'llanilishiga ham ularning bitta 'zakka aloqadorligi sabab bo'lgan. Semantik jihatdan esa, yuqorida keltirilgan maqolda yelka ma'nosidagi *kift* so'zi qo'llanishi lozim. Chunki, o'zbek mentalitetida singilni ulug'lash motivlari anchayin keng taraqqiy qilgan. O'zbek xalq maqollari izohlari bilan nashr etilgan "Hikmatnoma" kitobida yuqoridagi maqolga shundau izoh berildi. "...*Onangni kiftingda tutsang, singlingni boshingda tut.* "Hokimnikidan ham singlimniki zo'r" degan maqol ham bor. Bu maqolari bilan xalq singilni nihoyatda hurmat qilish zarurligini uqtiradi, "onangdan yuqori tut" deb mubolag'a qiladi..." [4.302]. Demak, yuqoridagi maqolda agarchi onangni yelkangda tutadigan bo'lsang, singlingni undan ham baland tut degan mazmun anglahiladi.

Keltirilgan maqoldagi kift so‘zi ham o‘z asl ma’nosidan ma’lum darajada siljigan bo‘lib konnotatsiya hodisasining yuzaga kelganligini sezish qiyin emas. Bu o‘rinda yelka, bosh leksemalari qay darajada hurmat qilish lozimligiga ishora qiluvchi uslubiy konnotasiyaning aynan o‘zi deb hisoblashga barcha asoslar yetarli deb o‘ylaymiz. Bu kabi maqollar tarkibidagi konnotativ funktsiya bajaruvchi, shu bilan birga, arxaiklashgan leksemalarning til qatlamlariga e’tibor qilinsa, ularning aksariyati o‘zlashgan qatlamga xos birliklar ekanligi ma’lum bo‘ladi. Jumladan, karvon, buromad, kift va boshqa ko‘plagan arxaik birliklar arab-fors leksik qatlamiga mansub hisoblandi.

O‘zbek xalq maqollarida uchraydigan arxaik leksemalarning katta foizi arab yoki fors tillariga taalluqli bo‘lishiga sabab, mazkur tillarga oid birliklar tariximizning oldingi davrlariga xos lisoniy koloritni yuzaga keltirish funksiyasiga xoslanishidir. Maqolar aksariyat hollarda axloqiy, tarbiyaviy xarakterga asoslangani uchun, undagi so‘zkarning ta’sirli bo‘lishi ko‘proq o‘tmishga, ota-bobolar o‘gitlariga yaqinlashtirish uchun tarixiy va eskirgan so‘zlar maqolar matnidan chiqarib tashlanmaydi. Zamonlar osha ham qadimiyligi bo‘rtib turishi uchun, bu so‘zlar avvalgi zamonlardan buyon aytilib, amal qilinib kelinayotganligini ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek xalq maqollari nafaol tarzda bo‘lsa ham hozirda qo‘llanilib turgan arxaik birliklarni o‘zida saqlab kelayotgan muhim manbalardan hisoblanadi. Maqollar matnlarida uchraydigan arxaik elementlarni to‘plash, turli lisoniy-konnotativ jihatlarini aniqlash zamonaviy tilshunosligimiz uchun muhim ma’lumotlarni taqdim qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. – <https://uza.uz/uz. 21-10-2019>
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Talqin, 2005. –B.204.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд. –Тошкент: Университет, 2003. –Б.199-202.
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. –Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 1990. –Б.302.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. B harfi. Madvaliyev tahiri ostida. www.ziyouz.com kutubxonasi. –B.381.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. K harfi. Madvaliyev tahiri ostida. www.ziyouz.com kutubxonasi. –B.377.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. M harfi. Madvaliyev tahiri ostida. www.ziyouz.com kutubxonasi. –B.669.